



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **570 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **580 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-fevral oyida viloyatimizda 709 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 188 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan -29,5 % ga kamaygan hamda ularning soni 129 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 570 ta (3,1%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19041 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qarshi shahrida (21,3 %), Kosonga (8,8%), Chiroqchi (7,8 %) va Qarshi (7,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|-------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | birlikda | jamiga nisbatan % | birlikda | jamiga nisbatan % |
| Qashqadaryo viloyatida | 19770 | 100,0 | 19041 | 100,0 |
| Qarshi shahar | 4303 | 21,7 | 4056 | 21,3 |
| Shahrisabz shahar | 1239 | 6,2 | 1225 | 6,4 |
| tumanlar: | | | | |
| G'uzor | 881 | 4,5 | 804 | 4,2 |
| Dehqonobod | 1025 | 5,2 | 934 | 4,9 |
| Qamashi | 1323 | 6,7 | 1298 | 6,8 |
| Qarshi | 1468 | 7,4 | 1440 | 7,6 |
| Koson | 1698 | 8,6 | 1675 | 8,8 |
| Kitob | 1361 | 6,9 | 1352 | 7,1 |
| Mirishkor | 610 | 3,1 | 596 | 3,1 |
| Muborak | 768 | 3,9 | 722 | 3,8 |
| Nishon | 679 | 3,4 | 644 | 3,4 |
| Kasbi | 708 | 3,6 | 668 | 3,5 |
| Chiroqchi | 1521 | 7,7 | 1482 | 7,8 |
| Shahrisabz | 884 | 4,5 | 866 | 4,6 |
| Yakkabog' | 1302 | 6,6 | 1279 | 6,7 |

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




faoliyat ko'rsatayotganlar
 faoliyatsizlar


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 11,9 % qurilishda, 11,3 % sanoatda, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 709 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 20,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (109 ta), chiroqchi (62 ta), Koson (61 ta) va Yakkabog' tumanlarida (54 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (14 ta), Kasbi (25 ta) hamda Muborak (31 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (143 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (111 ta), sanoatda (97 ta) va qurilishda (82 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), tashish va saqlashda (13 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,8 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,2 f.p,dan) kamayganligi, buning natijasida qurilishda (+0,5 f.p.), tashish va saqlashda (+0,5 f.p.), sanoatda (+0,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,4 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi | 01.03.2018 y. | 01.03.2017 y. | farqi (+-) |
|--|----------------------|----------------------|-------------------|
| Savdo | 23,9 | 25,7 | -1,8 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,2 | 3,2 | -1,2 |
| Qurilish | 11,9 | 11,4 | 0,5 |
| Tashish va saqlash | 3,9 | 3,4 | 0,5 |
| Sanoat | 11,3 | 10,9 | 0,4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4,0 | 3,9 | 0,1 |
| Axborot va aloqa | 1,2 | 1,1 | 0,1 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 12,9 | 12,9 | 0,0 |
| Boshqa turlari | 28,8 | 27,3 | 1,4 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 14900 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6894 ta, oilaviy korxonalar – 549 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6967 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 42 tani va boshqalar 448 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 55 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga yoki 14,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 44 tasi qo'shma korxonalar, 11 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 23 ta (41,8 %), Kitob tumani 7 ta (12,7 %) Muborak va Qarshi tumanlari 4 ta (7,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Koson, Chiroqchi, Yakkabog', Shahrisabz tumanlari 1 ta (1,8 %) va Nishon, Kasbi tumanlari 2 ta (5,6 %) va G'uzor, Qamashi tumanlari 3 ta (5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Mirishkor tumaniga tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 37 ta (67,3 %), savdoda 9 ta (16,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3 ta (5,5 %), tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (1,8 %) axborot va aloqada 1 ta (1,8 %), qurilishda 2 ta (3,6 %), boshqa turlarida esa 2 ta (3,6%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 1 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14752 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 4,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3306 tasi (22,4 %) Qarshi shahriga, 1339 tasi (9,1 %) Koson, 1187 tasi (8,0 %) Qarshi hamda 1112 tasi (7,5 foizi) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14752 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4518 tasi (30,6 %) – savdoda, 2429 tasi (16,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2238 tasi (15,2 %) - qurilishda, 2101 tasi (14,2 %) - sanoatda, 752 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 726 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 286 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 221 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1481 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 521 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,8 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida (92 ta), Chiroqchi (49 ta), Nishon (41 ta), Koson va Qamashi tumanlarida (40 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (10 ta), Kasbi (20 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (286 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (222 ta), sanoatda (192 ta) va qurilishda (157 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), tashish va saqlashda (26 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 564 tani tashkil etib, ulardan 549 tasi yoki 97,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **27,0** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,1 % yoki 298 tasi sanoat, 18,8 % yoki 206 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 % yoki 200 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 17,7 % yoki 194 tasi savdo, 2,6 % yoki 28 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 2,0 % yoki 22 tasi qurilish, 1,6 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 11,7 % yoki 128 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i
Nashr uchun mas'ul: **T.Karayev**
(0371) 230-84-10

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan